

**FUQAROLIK JAMIYATINI QURISHDA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR  
ASOSIY OMIL SIFATIDA**

Napasova Oysha Yunus qizi

Urganch davlat universiteti Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar  
fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:**

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatini qurishda demokratik islohotlarning asosiy omil sifatidagi ahamiyati yoritib beriladi. Unda bugungi kunda amalga oshirilayotgan demokratik siyosat, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi qonunlar hamda yaratilayotgan imkoniyatlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.. Maqolada davlat rahbari tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning amaliyotdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yuksak fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi strategik maqsadlari hamda bu jarayonda davlat organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, uyushmalar.

**Introduction**

**Annotation:**

The article highlights the importance of democratic reforms as a key factor in building a civil society. It examines the content and essence of the current democratic policies, new laws aimed at developing civil society institutions, and the opportunities being created. The article analyzes the normative legal acts initiated by the head of state, aimed at promoting civil society and deepening democratic reforms, and discusses their practical significance. Additionally, it outlines the strategic goals of the Republic of Uzbekistan in establishing a high-level civil society and the responsibilities assigned to state bodies in this process.

**Keywords:** Civil society, civil society institutions, public associations, political parties, associations.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishida esa demokratik islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda davlat rahbari tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga e'tibor qaratildi va shu asosda juda ko'plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Davlat o'z oldiga qo'ygan eng katta maqsadlardan biri albatta fuqarolik jamiyatini qurish orqali inson huquq, erkinliklari va qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Bunday jamiyatni barpo etishda demokratik islohotlar alohida ahamiyatga ega. Demokratik islohotlar davlat boshqaruvining takomillashuvi, aholining ijtimoiy faolligini oshirishga, jamiyatda ochiqlik,

shafoflik va adolatni ta'minlashga va shuningdek xalq manfaatlariga xizmat qiladi. Qabul qilinayotgan qonunlar va huquqiy hujjatlar fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgan aynan mana shu normativ huquqiy hujjatlarning ma'zmuni va mohiyati fuqarolik jamiyatining kelajakdagi modelini bashorat qilishga yordam beradi.

Maqolaning mazmuni va dolzarbligini tushuntirishdan oldin fuqarolik jamiyati o'zi nima degan savolga to'xtalib o'tsak. Sh.A.Saydullayev fikricha, fuqarolik jamiyati - har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir<sup>1</sup>. Fuqarolik jamiyatiga turli manfaatlardan kelib chiqib birlashish mumkin. Fuqarolik jamiyati insoniyat sivilizatsiyasi va tarixiy uyg'unlikda rivojlangan madaniy- ma'rifiy yuksalishning yuqori darajasidir. Mazkur jamiyat inson huquq, erkinliklari ,umuminsoniy demokratik qadriyatlar va institutlarning qaror topganligi, fuqarolarning manfaatlar uchun o'z faoliyatini amalga oshiradigan, adolati qonunlar tizimining shakllanganligi, fuqarolarning yuksak ma'naviy-ma'rifiy jihatdan komillikka erishtiradigan jamiyat sifatida ta'riflash mumkin. Fuqarolik jamiyati tushunchasi XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa keng tarqala boshladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng rivojlandi, shu davrlardan hayotga joriy etilayotgan bo'lsa-da, bu tushuncha insoniyat tafakkuriga azal-azaldan ma'lum bo'lgan tushunchadir. Jamiyat so'zi tilga olar ekanmiz ko'z oldimizda kishilar jamlanmasi gavdalanadi va bu kishilar jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida alohida ijobiy faoliyat va mehnatining roli juda katta. Ular birlashar ekan jamiyat oldida o'zlarining mehnati, harakatlari bilan davlat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hislarini qo'shadilar va shu yo'lda o'zlari ham davlat, jamiyat bilan birga yuksaladilar.

Demokratik islohotlar fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini erkin amalga oshiradi hamda davlat boshqaruvida faol ishtirok etadi. Bunday jamiyatni barpo etishda demokratik islohotlarning o'rni beqiyosdir. Demokratik islohotlar orqali jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquqlari himoya qilinadi va fuqarolarning siyosiy hamda ijtimoiy faolligi oshadi. Natijada davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mustahkamlanadi. Aynan shu jarayonlar fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga zamin yaratadi va natijada so'nggi to'rt yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 20,7 foizga oshdi, jumladan 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatini boshladi. Fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida mustaqillikdan so'ng va oxirgi yillar ichida juda ko'plab qonunlar, konsepsiyalar va turli xil qonun hujjatlari qabul qilindi va shu asosda davlat organlariga bir qancha vazifalar yuklatildi. Fuqarolik jamiyatini qurishda demokratik islohotlar natijasida qabul qilingan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar quyidagilar:

<sup>1</sup> Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024. – 264 bet.

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan PF-4947-son Farmoni “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021 yil 4-martda qabul qilingan PF-6181-son Farmoni “2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-son Farmoni “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-mayda qabul qilingan 288-son qarori “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2025-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va shu kabi hujjatlar yuksak fuqarolik jamiyatini qurishga qartilgan.

Har bir qabul qilingan hujjat fuqarolik jamiyatini qurishda eng asosiy omil sifatida xizmat qiladi ya’ni g‘isht vazifasini o‘taydi desak adashmagan bo‘lamiz. Hujjatlarning har birida alohida vazifa va maqsadlar belgilangan bo‘lib ular fuqarolik jamiyatini yuksak darajada qurishda yo‘l ko‘rsatuvchi chiroq bo‘lib xizmat qiladi. Qonun hujjatlaridagi belgilangan normalar shunchaki qog‘ozda qolmasligini ta’minlashda ishtirok etishlari va har bir fuqaro mukammal darajadagi kishilar jamiyatini qurishda o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim. Bunda fuqarolar o‘zlarining manfaatlaridan kelib chiqib turli xil jamiyatlarga jumladan, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga, nodavlat notijorat tashkilotlarga a‘zo bo‘lishlari yoxud ommaviy axborot vositalarida ishtirok etishlari mumkin. “Davlat-jamiyat-shaxs” zanjiri ham oldimizga qo‘yilgan maqsad uchun eng samarali usul desak bo‘ladi, chunki qachonki davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar mustahkam bo‘lar ekan, butun bir jamiyat hatto davlat ham mustahkam bo‘ladi. Yuqorida qayd qilgan hujjatlarimiz bilan yaqindan tanishin chiqadigan bo‘lsak har bir norma yuksak darajadagi jamiyat qurish uchun alohida vazifalar, funksiyalar va majburiyatlar belgilangan bo‘lib normaning zamirida inson manfaati yotadi. Shaxs o‘z huquq va majburiyatlarini anglagan holda jamiyat hayotida faol ishtirok etsa, bu butun bir tizimning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

“2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilar:

- ✓ fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- ✓ fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- ✓ davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;
- ✓ fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashdan iborat.

Konsepsiyani qabul qilish orqali fuqarolik jamiyatini qurishda yo‘nalish aniqlanadi va shunga monan harakatlar, vazifalar va majburiyatlar belgilanadi. So‘nggi yillarda davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarni qo‘llab-quvvatlash shuningdek ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratining ta’sirchanligini

kuchaytirish orqali sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida ishlar olib borildi. Ushbu qonunda aniq va ravshan yoritilgan, hozir ulardan bir qanchasi bilan tanishib chiqsak va ularga alohida to'xtalamiz. Konsepsiyaning umumiy qoidalar bobida hujjatning maqsadi belgilangan 2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hamda dolzarb masalalarni hal etishda hamkorligini kuchaytirish, respublikada barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashabbuskorligi va faolligini oshirish hisoblanadi. Konsepsiyaning 2-bobining 6 bandida esa "nodavlat notijorat tashkilotlarining ro'yxatga oluvchi organ bilan bog'liq barcha davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish" degan norma belgilangan bo'lib, bu normada aholi uchun qulaylik yaratish, ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish, ularning vaqtini tejash va shu orqali aholiga tez va sifatli xizmat ko'rsatishni ko'zda tutadi. Bu boradi esa bir qancha elektron saytlar ishga tushirilgan masalan: [my.gov.uz](http://my.gov.uz) barcha xizmatlar uchun asosiy umumiy portal;

[e-ngo.uz](http://e-ngo.uz) bu aynan nodavlat va notijorat tashkilotlari uchun maxsus elektron platforma (asosiy tizim);

[nnt.adliya.uz](http://nnt.adliya.uz) bu portal engo tizimi bilan bevosita bog'liq.

Har bir sayt va portalda aholi ariza berishi, ma'lumot olishi uchun bo'limlar mavjud, ularning barchasi oddiy va tushunarli shaklda yaratilgan. Konsepsiyada belgilangan normaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mana shunday elektron tizimlar yaratilgan, bu hali demokratik islohotlar natijasining bir qismidir. Qonun hujjatlari va davlat dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini barcha uchun ochiq bo'lgan onlayn kuzatib borish tizimini joriy qilish bo'yicha [ijro.gov.uz](http://ijro.gov.uz) [data.gov.uz](http://data.gov.uz) saytlari ishga tushirilgan bu saytlar orqali fuqarolar yangi qonunchilik normalari bilan tanishib o'z huquqiy bilimlarini oshirishlari mumkin. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va ularning huquqiy faoliyat yuritishi uchun takomillashtirilgan normalar belgilangan ushbu konsepsiyada.

Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim deb belgilandi:

I.nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilgan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar mablag'lari ishlatilishi hamda ularning o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanishi jarayonining oshkoraligini ta'minlash bo'yicha "Openness of non-governmental non-profit organizations" — "Ochiqlik standarti"ni joriy etish;

Shuningdek, bu bo'yicha nodavlat va notijorat tashkilotlari o'zlarining veb-saytlarida nima ish bilan shug'ullanayotgani, amalga oshirayotgan loyihalari va erishilgan natijalari haqidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka ochiq tarzda ma'lumotlar berib boradi.

II.davlat organlari xodimlarining fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan bevosita elektron aloqa vositalari orqali tezkorlik muloqotini yo'lga qo'yish; Xususan, bu ish doirasida bir necha saytlar va aloqa vositalari ishga tushirilgan bo'lib, jamoatchilik.uz, e-qaror kabilar misol bo'la oladi.

III.fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish jarayonida "kraudfanding instituti" imkoniyatidan foydalanish mexanizmini yaratish;

Kraudfanding atamasi yaqin yillarda yangi kirib kelgan atama bo‘lib, kraudfanding instituti (inglizcha crowd - "omma", funding -"moliyalashtirish")- bu jismoniy yoki yuridik shaxslarning (ommaning) biznes, ijtimoiy, innovatsion yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirish uchun internet platformalar orqali o‘z mablag‘larini ixtiyoriy ravishda birlashtirishi (jamoaviy moliyalashtirish) mexanizmi hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, ko‘plab odamlarning uncha katta bo‘lmagan miqdorda pul yig‘ib, katta bir loyihani moliyalashtirishidir. Bu institut faoliyati ko‘pincha internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladi. Kraudfanding institutining joriy etilishining afzalligi shundaki, u turli xil innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlashga, kompaniya loyihaning tanilishiga va brend atrofida sodiq hamjamiyat shakllanishiga yordam beradi.

IV.volontyorlik faoliyati hisobini olib borish va yo‘naltirish imkonini ta‘minlovchi yagona interaktiv portal yaratish;( [volunteer.uz](http://volunteer.uz) )

Bu portal allaqachon ishga tushgan bo‘lib, 53 mingdan ortiq volontyorlar bilan o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda va o‘z ichiga 40 dan ortiq loyihalarni qamrab olgan. Xususan portalda ekologik, ijtimoiy yordam, ta‘lim va turli xil loyihalarda ishtirok etish va volontyorlar guruhiga qo‘shilish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Har bir ko‘ngillining bajargan ishlari, sarflagan vaqti va loyihalardagi ishtiroki tizimda qayd etib boriladi va ular munosib tarzda rag‘batlantiriladi. Portal ishga tushirilganiga hali ko‘p bo‘lmadi ammo u qisqa vaqt ichida o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Keying yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini iqtisodiy jihatdan yanada qo‘llab quvvatlash va ularning faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha alohida e‘tibor berildi. Xususan, 2014 — 2024-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining bandlik, ekologiya, yoshlar, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash sohalaridagi 4 300 dan ziyod loyihalariga respublika va mahalliy budjetlardan 2 trln. 56 mlrd. so‘m ajratilib ularning faoliyati yanada kengaytirishga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-124-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlarini qo‘shib yuborish va ularning negizida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondini hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida alohida bo‘linmalarini tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbus qo‘llab-quvvatlanib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo‘shma qarori “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan olinadigan mablag‘larni jamlash va bu mablag‘larning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamda

uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo‘linmalari tomonidan vertikal va shaffof tizim orqali fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar masalalarni hal etishda ularning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga qaratilgan dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun taqsimlanishini tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnik jihatdan ta‘minlanganlik darajasini oshirish, ularga huquqiy, maslahat, tashkiliy, texnik va boshqa xil yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq loyihalar hamda dasturlarni, ularning jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko‘zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga, ularning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, shuningdek amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlarning joriy monitoringini yo‘lga qo‘yish;

- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida ta‘sirchan jamoatchilik nazorati olib borilishini rag‘batlantirish;

- fuqarolik jamiyati institutlarining xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda ularning xorijdagi uyushmalari bilan hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatidagi o‘zgarishlar va ularning samarali va shaffof faoliyat ko‘rsatishi uchun davlat tomonidan barcha imkoniyatlar yartib har tomonlama qo‘llab quvvatalanmoqda bu esa fuqarolik jamiyatining mukammal va yuksak bo‘lib borishga xizmat qilmoqda. Yuqorida fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining tashkil qilishi haqida ma‘lumot berib o‘tildi endilikda esa bu jamoat fondining tuzilmasi haqida qisqacha to‘xtalamiz. Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining huquq va majburiyatlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo‘shma qarori asosida tartibga solingan. Jamoat fondining faoliyatiga rahbarlikni quyidagilar amalga oshiradi:

- Jamoat fondining vasiylik kengashi vazifalarini bajaradigan Parlament komissiyasi;
- Jamoat fondining boshqaruvi vazifalarini bajaradigan Fondning Ijro etuvchi devoni.
- Parlament komissiyasi Jamoat fondining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organdir. 1-ilovada uning tuzilmasini ko‘rish mumkin va bu jamoat fondida boshqaruv xodimlarning umumiy cheklangan soni 45 nafar.

Jamoat fondi o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga, Parlament komissiyasiga, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarga, soliq va statistika organlariga qonunda belgilangan tartibda hisobot taqdim etishi shart


Fuqarolik jamiyati institutlarni qo‘llab quvvatlash va mustahkam fuqarolik jamiyatini qurish uchun bugungi kungacha 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ularning har birida alohida ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib ularning deyarli barchasi o‘z samarasini ko‘rsatdi. Fuqarolik jamiyatini qurishda ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham muhim hisoblandi. Har bir yangi normativ huquqiy hujjatning ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilinishi va fuqarolarga bu borada tushintirishlar va hujjatning mazmuni mohiyatini aniq yetkaza

olish orqali yanada teranroq anglashiga ko'makalashadi. OAV ijtimoiy muloqotni rivojlantiradi shuningdek fuqarolar, nodavlat tashkilotlar va davlat organlari o'rtasida ochiq muloqot maydonini yaratadi. OAV orqali fuqarolar fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan muntazam tanishib borishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik jamiyatini qurishda demokratik islohotlar ahamiyati qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarda belgilangan vazifalar va ishlar bilan uzviy bog'liq. Davlatimiz rahbari qabul qilingan har bir normativ huquqiy hujjatning ijrosini ta'minlashni va nazorat qilish uchun shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bu shart-sharoitlarning barchasi fuqarolik jamiyatini qurishda alohida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida hujjatlarda belgilangan vazifalar, ustuvor yo'nalishlar va ishlarni alohida tarzda tahlil qilib ma'lumotlarni va ularning natijasi amalda qay darajada bajarilayotganini ko'rib chiqdik. Hayotda bu vazifalar kutilgandanda ko'ra tez va samarali ish berdi. Har bir ustuvor yo'nalishlar bo'yicha alohida ishlar amalga oshirildi, fuqarolik jamiyatini qurishda izchil islohotlar amalga oshirish davom ettirilib bu jarayon davomida davlat hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yanada mustahkamlandi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga alohida e'tibor berilib, fuqarolarning o'z haq huquqlarini bilishi va ularni himoya qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga nodavlat va notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida faoliyat yuritish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirildi. Raqamli hukumat tamoyili asosida bir qancha portal va saytlar ishga tushirilib fuqarolarga tez sifatli va samarali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Ayni vaqtda bu fuqarolik jamiyati institutlari uchun ham juda keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratib, aholiga yanada tushunarli bo'ldi. Fuqarolarlik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini, dasturiy ta'minotlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Zarurligining ahamiyati shundaki yillar o'tgani sayin raqamli hukumatga talab oshmoqda va ko'plab davlatlarda bu tizim ijobiy natija bermoqda. Kelajakdagi chuqur asosiy fuqarolik jamiyatining ishlashi va taraqqiy etishida ijtimoiy tarmoqlar va elektron platformalar orqali demokratik jarayonlarga ta'sirini o'rganishga yo'naltirilishi mumkin. Mamlakatimizda esa fuqarolik jamiyatini qurishda kelajak texnologiyalarini inobatga olgan holda demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir islohot uzoq muddatli istiqbolni ko'zlagan holda amalga oshirilar ekan o'zida, barqarorlikni, izchillikni hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi chuqur o'zgarishlarni mujassam etadi. Bunday islohotlar shoshma-shosharlik bilan emas, balki puxta o'ylangan reja asosida, bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan ahamiyatlidir va fuqarolik jamiyatini qurishdagi isloklar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda. Faqat shundagina islohotlar jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va o'zining ijobiy samarasini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining

TUZILMASI



1-ilova

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 28- oktyabrdagi 5005-IV-son qo‘shma qarori “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021 yil 4-martdagi PF-6181-son Farmoni “2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi gi PF-124-son Farmoni  
“Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

Internet manbalar :

4. [lex.uz](http://lex.uz)
5. [my.gov.uz](http://my.gov.uz)
6. [e-ngo.uz](http://e-ngo.uz)
7. [volunteers.uz](http://volunteers.uz)
8. [daryo.uz](http://daryo.uz)